

NUTQ NUQSONLARI VA ULARNING BARTARAF ETISH YO'LLARI

*Toshkent kimyo universiteti Namangan
filiali pedagogika fakulteti
Maxsus pedagogika yo'nalishi talabasi
Abduvahobova Muhlisa Abdulhaq qizi
abduvahobovamuhlisa5@gmail.com*

Anonatsiya: Ushbu maqolada nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik, logopedik va pedagogik yondashuvlari tahlil qilingan. Bunday bolalar bilan ishlash ularning so'z boyligini oshirish maxsus pedagogning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Nutqda buzulishlarning kelib chiqishi sabablari turlari va ular bilan ishlashda individual yondashuv muhurligi ko'rsatib o'tadi.

Kalit so'zlar: Nutq, til, buzilish, logoped, bola, rivojlanish, muloqot, turlari, ota-ona, pedagog, kamchilik, ogzaki nutq, yozma nutq.

Annotation: In this article, psychological, speech therapy and pedagogical approaches of children with speech defects are analyzed. Working with such children to increase their vocabulary is one of the main goals of a special pedagogue. It shows the types of causes of speech disorders and the importance of an individual approach in dealing with them.

Key words: Speech, language, disorder, speech therapist, child development, communication, types, parents, pedagogue, deficiency, development, oral speech, written speech.

Nutq murakkab funksional jarayondir. Uning asosida muloqot jarayonidagi til belgisi tartiblaridan qo'llanilish yotadi. Tilning murakkab tizimi uzoq muddatli ijtimoiy-tarixiy rivojlanish mahsuli bo'lib, u bola tomonidan nisbatan qisqa muddatlarda o'zlashtirib olinadi.

Nutq buzulishining ko'pgina turlari markaziy asab tizimining organik shikastlanishi bilan bog'liq bo'lib, u logoped va nevropatolog-shifokor hamkorlikda ishlashi bilan aniqlanishi mumkin. Nutq buzulishining ko'pgina ko'rinishlari miya rivojlanishining barvaqt sekinlanishi bilan bog'liq.

Nutq vazifasi insonning muhim ruxiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Nutq rivojlanishi jarayonida bilish faoliyatining oliy shakllari, tafakkur qobiliyatlari shakllanadi. So'zning ahamiyati o'z-o'zidan umumlashtiruvchi hisoblanadi va shu munosabat bilan o'zidan nafaqat nutq birligini, balki tafakkur birligini ham nomoyon qiladi. Bolalarda nutqning buzulishi nisbatan tez-tez uchraydi va bolaning samarali muloqot qilish qobiliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushu buzulishlar yengildan og'irgacha bo'lishi va nutqning turli jihatlariga, jumladan artikulyatsiya,

ravonlik va ovozga ta'sir qilishi mumkin. Nutq kamchiligi logopediya fanida muayyan tilning me'yorlaridan chetga chiqish deb ta'riflanadi. Nutq kamchiliklari quyidagilar bilan harakterlanadi. Nutq kamchiligi o'z-o'zidan barham topmaydi, balki vaqt o'tgan sari yanada mustahkamlanib, zo'rayib boradi. Nutq kamchiliklarini kattalarda namoyon bo'lishi ularning yoshiga mos kelmaydi. Nutq kamchiligiga ega bo'lgan kishilar logopedik yordamiga muhtoj bo'ladilar. Bolalarda nutqning buzulishi turlari sabablarga ko'ra bo'lishi mumkin, jumladan genetik omillar, rivojlanishi kechikishi, nevrologik kasalliklar, travma yoki erta tilning qo'zg'atmaslik kabi atrof-muhit omillari ham nutqning buzulishiga sabab bo'ladi.

Ota-onalar farzandiga tegishli yordam va aralashuvni izlashlari uchun ushbu potensial sabablardan xabardor bo'lishi muhimdir. Bolalarda nutq buzulishini bartaraf etishda erta aralashuv muhim ahamiyatga ega. Nutq terapiyasi bolalarning muloqot qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradigan umumiy davolash usulidir.

Nutq buzulishlarini o'rganishda nutq hosil bo'lish operatsiyalaridan qaysi biri buzilganligini aniqlash muhimdir. Logopediyada A.S.Vigotskiy, A.Leontov, T.V.Ryabova tomonidan ishlab chiqilgan nutq hosil bo'lish modellaridan foydalaniladi. A.S.Vigotskiy fikr bilan so'z oralig'idagi munosabatni fikrdan so'zga va aksincha, harakat jarayoni deb qarar, harakatning quyidagi jihatlarini ajratib ko'rsatar edi: motiv-fikr-ichki, nutq-tashqi-nutq; nutqning tashqi va sementik qurilishlarning o'zaro munosabatlari ko'zga tashlanadi. Ichki nutq semantik jihatdan tashqi nutqqa aylanish strukturasi hisoblanadi. L.S.Vigotskiy ichki nutqni chuqur tahlil qildi, uning o'ziga xos sususiyatlarini ochib berdi.[1.24]

Shunday qilib, nutq buzulishlarini o'rganish va ularni tuzatishda komplekslilik tamoyili muhim o'rin tutadi. Nutq buzulishlarini o'rganish va ularni tuzatish jarayonida anomal bolalar rivojlanishining umumiy va o'ziga xos qonuniyatlarini hisobga olish muhimdir. Nutq buzilishlarini o'rganish va tuzatish didaktik tamoyillar: korgazmalilik, tushunarlilik, onglilik, yakka tartibda yondashish va boshqalar muhim o'rin tutadi. Nutq buzilishlarini tahlil qilishda bola yoshining uning ijtimoiy va oilaviy muhitini, nutq buzilishini keltirib chiqirishi mumkin bo'lgan etiologik va patogenetik omillarni e'tiborga olish muhim. Shunday qilib, hozirgi davr mamlakat logopediyasida nutq buzulishlarining ikkita tasnifi o'rin olgan: birinchisi: tibbiy pedagogik, ikkinchisi: psixolog-pedagogik yoki pedagogik.

Tibbiy pedagogik tasnif logopediya fani uchun an'anaviy bo'lgan tibbiyot bilan hamkorlikka tayanadi. U asosan nutqiy nuqsonlarni tuzatishga, ularni bartaraf etishga alohida-alohida yondashuv ishlab chiqishga yo'naltirilgan hamda nutq buzulishlarining shakl va turlarini batafsil tekshirishga qaratilgan. Maqsad uning ichida buzilishlarning asosiy shakllarini, ularda esa buzulishlarning asosiy turlarini ajratishdir. Logopedik ta'sir etish talablaridan kelib chiqib, nutqda nima buzulganligini

tasavvur etishga va shu asosda bir nutq buzulishini ikkinchisidan cheklanish belgilariga qarab ajratishga imkon beruvchi quyidagi mezonlar aniqlanadi.

1. Nutq shakllarining og'zaki yoki yozma buzilishi
2. Buzilgan nutq faoliyati turini shakllardan har biriga qo'llangan holda; og'zaki nutq uchun so'zlash yoki eshitishdagi buzilish, yozma nutq uchun yozish yoki o'qish buzilishi.
3. Nutq paydo bo'lishi yoki uning idrok etishning buzilgan bosqichining buzilishi.
4. Nutq paydo bo'lishi yoki uning idrok etishning u yoki bu bosqichida fikrini amalga oshiruvchi operatsiyalarning buzilishi
5. Fikr bildirishning tayyor vositalarining buzilishi [ayupova51 bet]

Bunday mezonlar asosida olingan ma'lumotlar logoped uchun muhimdir, chunki ular e'tiborini tuzatilishi lozim bo'lgan anatomik- fiziologik mexanizmga yonaltiradi.

Tibbiy – pedagogik tasniflashda ajratiladigan nutq buzilishlarining turlari.

Nutqning qaysi turi buzilganligiga qarab ikkita guruhga bo'lish mumkin: Og'zaki va yozma.

Og'zaki nutqning buzilishi.

1. Disfoniya – tovush apparatining patalogik o'zgarishlari oqibatida fonatsiyaning yo'q bo'lishi yoki zaiflashuvi. Tovush yuqoriligiga va yo'g'on ingichkaligiga, fonatsiyaning yo'q bo'lishida quvvatning buzulishida nomoyon bo'ladi. U markaziy yoki sirtqi to'xtalish tovush chiqarish mexanizmining organik yoki funksional zaiflashuvi bilan bog'liq bo'lishi va bola rivojlanishining har qanday bosqichida yuzaga chiqishi mumkin.[2.38]
2. Bradilaliya- nutqning patologik sekinlashgan sur'ati. Artikular nutq dasturining sekinlashgan ishlab chiqarishda namoyon bo'ladi markaziy bog'langan va o'z tabiatiga ko'ra organik yoki funksional bo'lishi mumkin.
3. Taxilaliya – nutqning patologik tezlashgan sur'ati. Artikular nutq dasturining tezlashgan holda amalga oshirilishida namoyon bo'ladi, o'z tabiatiga ko'ra, markaziy bog'langan, organik yoki funksional hisoblanadi.
4. Duduqlanish – nutq apparati mushaklarining va ixtiyoriy pay tortishish natijasida sur'at ohangini buzulishidir. Markaziy bog'langan bo'ladi funksional yoki organik ko'rinishiga ega, ko'proq bola nutqining rivojlanishida paydo bo'ladi.
5. Dislaliya- tovush talaffuz qilishning normal eshitish va nutq apparatining saqlangan intervatsiyasi paytida buzilishi. Nutqning noto'g'ri tovushli turlanishida: tovushlarni buzib talaffuz qilishda , tovushlarning almashinuvi yoki ularning yo'qligida namoyon bo'ladi. Nuqson shuning bilan bog'liq bo'lishi mumkinki, bunday paytda bolalarda artikular baza shakllanmaydi yoki

artikular tomon noto'g'ri shakllanadi. Buning oqibatida nomuoviq tovushlar hosil bo'ladi.[15- bet]

Noto'g'ri talaffuz nutq kamchiligi haqidagi birinchi ma'lumotlar qadimgi grekolimlari [Plutarx](#), [Gippokrat](#), [Kladiya](#), [Galen](#) va boshqalarning ishlarida bayon qilindi. Yuqoridagi mualliflar noto'g'ri talaffuzni davolashni talab qiluvchi kasallik deb qaraydilar. Ularning fikricha, tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish til, lab, qattiq va yumshoq tanglayning zararlanishi bilan bog'liq deb ko'rsatadilar

6. Rinolaliya- tovush tembri va talaffuzining nutq apparatidagi anatomik-fiziologik nuqsonlar bilan bog'liq holdagi buzilishlar.
7. Dizatriya- nutq talaffuzi tomonining nutq apparati innervatsiyasidagi yetishmovchiliklar bilan bog'liq holda buzilishidir.

Bayon qilishning strukturali-simantik turlanishidagi buzilishi ikki turga bo'linadi: alaliya va afaziya bilan ko'rsatiladi. [3.46]

1. Alaliya – bosh miya qobig'idagi nutq zonalarining bolaning ona qornidagi yoki ilk rivojlanish davridagi organ shikastlanishi natijasida nutqning yo'q bo'lishi yoki rivojlanmay qolishi.
2. Afaziya- bosh miyaning muayyan joyi shikastlanishi bilan bog'liq holda nutqning to'liq yoki qisman yo'qolishi .

Yozma nutqning buzilishi. Uning qaysi turi buzilganiga qarab ikki guruhga ajratiladi. Mahsuldor tur buzilganida yozuvning zaiflashuvi, retseptli yozma faoliyat buzilganda –o'qishning zaiflashuvi qayd qilinadi.

1. Disleksiya- o'qish jarayonining o'ziga xos buzilishi.

Harflarni idrok etish va tanishdagi qiyinchiliklarda ; harflarni bo'g'inlarga qo'shish va bo'g'inlardan so'z tuzish borasidagi tutilishlarda ; agramatizm va o'qiganlarini buzib tushinishda namoyon bo'ladi[2.55]

2. Disgrafiya- yozish jarayonining qisman o'ziga xos ravishda buzilishi.

Harflarning optik –fazoviy obrazining turg'un emasligida, harflarning aralashib ketishi yoki tushib qolishida , so'zning so'z –bo'g'in tarkibini bayon qilish va gap qurilishida namoyon bo'ladi. O'qitish davomida yozish jarayoni shakllanmagan hollarda agrafiya haqida fikr yuritiladi.

Shunday qilib , logopediyada nutq buzilishlarining 11 ta shakli mavjud, ulardan 9 tasi og'zaki nutq jarayonlari buzilishlari tashkil etadi. Qolgan 2 ta shakl esa yozma nutqning buzilish jarayoni bilan bog'liq holda ajratiladigan buzilishlarni o'z ichiga oladi.[3.56]

Bolalarni nutqi va aqlini rivojlantirishda hikoya, ertaklar juda foydali. Ularga ertak o'qib berilganda fikrlash qobiliyatini ham o'stirgan bo'lamiz. Ayniqsa buvijon bobojonlarimiz o'zlarini yoshliklarini va yoshlikda o'ynagan o'yinlarini gapirib berganlarida bolada albatta qiziqish paydo bo'ladi. Kecha aytib bergan ertakni qaytadan so'raganingizda bolada xotirasi mutahkamlanadi, fikrlash qobiliyati

shakllanadi. Bola psixologiyasi juda murakkab, ba'zi birlari injiq bo'lsa, ba'zi birlari odamovi bo'lishadi. Agar shunday holatlarga duch kelsangiz albatta ularga ko'proq vaqt ajrating, ular bilan ko'proq gaplashing, savollariga javob bering. Bolalar aqlini rivojlantirish uchun shaklli va rangli o'yinchoqlar juda muhim. Bolada rang ajratish va shakllarni farqlash qobiliyati rivojlanadi. Bolalar nutqi ustida ishlash jaryonida tengdoshlari bilan onalarning roli benihoyat kattadir.

Biroq kuzatishlarimiz asosida shunday xulosaga keldikki, maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy aloqani tarbiyalashda tarbiyachi va ota-onalarning roli benihoya kattadir. Bolalar nutqi ustida ishlash jaryonida tengdoshlari bilan suhbatda xushmuomala bo'lishlariga, tabiiy ohangda gapirishlariga, so'zlashganda suhbatdoshining yuziga qarab turishlariga, qo'llari va yuz mimikalarini bamaylixotir holatda tutib turishlariga e'tibor berilishi kerak. 5 -6 -7 yoshli bolalarda lug'at boyligi 2500-3500 tagacha so'zlarni tushunishi va bilishi kerak, aks holda albatta mutahassis bilan maslahatlashish lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adbiyotlar:

1. M.Ayupova
2. Nilufar Abidova
3. Mo'minova Lola Rahimovna
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/>